O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

Shirin kashtanlarning savdoga chiqarish va tijorat sifatini nazorat qilishga doir standart (FFV 39:2017, IDT)

Rasmiy nashr

O‘zbekiston standartlar instituti
Toshkent

STANDARTLAR INSTITUTI #GX5NMZC4IK - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

So‘zboshi

1 O‘zbekiston standartlar instituti tomonidan **ISHLAB CHIQILDI.**

2 O‘zbekiston standartlar institutining 2026-yil 21-iyuldagi 26/XSt-26-sonli buyrug‘i bilan **TASDIQLANDI.**

3 Ushbu standart FVV-28:2020 “concerning the marketing and commercial quality control of Sweet Chestnuts” xalqaro standartiga aynan o‘xshash.

4 DASTLABKI AMALGA KIRITILISHI

Ushbu milliy standart va unga bo‘lgan o‘zgartishlarni O‘zbekiston hududida amalga kiritish haqidagi axborot Standartlashtirish bo‘yicha milliy organning rasmiy veb-saytlari va standartlarning yillik axborot ko‘rsatkichlarida chop etiladi.

Ushbu standartni O‘zbekiston hududida rasmiy tarqatish mutlaq huquqi O‘zbekiston standartlar institutiga tegishlidir

STANDARTLAR INSTITUTI #GX5NMZC4IK - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

IZOH

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sifati bo‘yicha ishchi guruh

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yevropa iqtisodiy komissiyasi (BMT YIK) Qishloq xo‘jaligi sifati standartlari bo‘yicha ishchi guruhi tomonidan ishlab chiqilgan tijorat sifati standartlari xalqaro savdoni rivojlantirishga ko‘maklashadi, yuqori sifatli mahsulot yetishtirishni rag‘batlantiradi, rentabellikni oshiradi hamda iste’molchilar manfaatlarini himoya qiladi. BMT YIK standartlaridan hukumatlar, ishlab chiqaruvchilar, savdogarlar, import qiluvchilar va eksport qiluvchilar hamda boshqa xalqaro tashkilotlar foydalanadi. Ushbu standartlar qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining keng turini, jumladan, yangi uzilgan meva va sabzavotlar, quruq va quritilgan mahsulotlar, urug‘lik kartoshka, go‘sht, kesilgan gullar, tuxum va tuxum mahsulotlarini qamrab oladi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a’zo har qanday mamlakat Ishchi guruh faoliyatida teng ishtirok etishi mumkin. Qishloq xo‘jaligi standartlari bo‘yicha qo‘shimcha ma’lumotlarni bizning veb-saytimizdan olishingiz mumkin: http://www.unece.org/trade/agr/welcome.html.

Shirin kashtanlarga doir mazkur qayta ko‘rib chiqilgan standart Ishchi guruhning yetmish ikkinchi sessiyasida ko‘rib chiqilgan va qabul qilingan ECE/CTCS/WP.7/2016/14 hujjatiga asoslangan.

Standartlarning umumiy tuzilmasiga muvofiqlashtirilgan. (2017)

Ushbu standartni talqin qilish yoki qo‘llashda tushunmovchiliklar yuzaga kelganda standartning asli yozilgan tillarning biridan foydalanish tavsiya etiladi

STANDARTLAR INSTITUTI #GX5NMZC4IK - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

SHIRIN KASHTANLARNING SAVDOGA CHIQARISH VA TIJORAT SIFATINI NAZORAT QILISHGA DOIR STANDART

СТАНДАРТЫ КАСАЮЩИЙСЯ МАРКЕТИНГА И КОНТРОЛЯ ТОВАРНОГО КАЧЕСТВА СЪЕДОБНЫХ КАШТАНОВ

STANDARD FOR CONCERNING THE MARKETING AND COMMERCIAL QUALITY CONTROL OF SWEET CHESTNUTS

Amalga kiritish sanasi 01.08.2026 yil

I Mahsulot ta’rifi

Ushbu standart Castanea sativa Mill. (shirin kashtan), Castanea crenata Siebold et Zucc. (yapon kashtani) hamda ularning duragaylaridan yetishtirilgan navlarning (kultivarlarning) tikanli po‘stlog‘i olib tashlangan, po‘chog‘i saqlangan shirin kashtanlariga nisbatan qo‘llaniladi. Mazkur kashtanlar iste’molchiga yangi holda yetkazib berish uchun mo‘ljallangan bo‘lib, sanoatda qayta ishlash uchun mo‘ljallangan shirin kashtanlar ushbu standart doirasiga kirmaydi.

To‘sig‘i bo‘lmagan mag‘izga ega shirin kashtanlar maxsus tijorat nomi (masalan, «marron») ostida realizatsiya qilinishi mumkin.

II Sifatga oid qoidalar

Ushbu standartning maqsadi shirin kashtanlarni tayyorlash va qadoqlashdan keyin qo‘yiladigan sifat talablarini belgilashdan iborat.

Biroq eksportdan keyingi bosqichlarda ushbu standart qo‘llanilganda mahsulotlarda standart talablariga nisbatan quyidagi holatlar kuzatilishi mumkin:

• Yangiligi hamda tabiiy tarangligining biroz pasayishi

• Oliy toifasidan tashqari boshqa toifalarga mansub mahsulotlarda ularning rivojlanishi va tez buzilishga moyilligi natijasida yuzaga keladigan sifatning oz miqdordagi yomonlashuvi.

Mahsulot egasi (sotuvchisi) ushbu standart talablariga muvofiq bo‘lmagan mahsulotlarni namoyish etishi, sotuvga taklif qilishi, yetkazib berishi yoki boshqa har qanday usulda realizatsiya qilishi mumkin emas. Mahsulot egasi (sotuvchisi) mahsulotlarning ushbu standart talablariga muvofiqligi uchun javobgar hisoblanadi.

A. Minimal talablar

Har bir toifa uchun belgilangan maxsus talablar va yo‘l qo‘yiladigan chetlanishlar hisobga olingan holda, barcha toifadagi shirin kashtanlar quyidagi talablarga javob berishi kerak:

• butun bo‘lishi kerak, biroq mag‘izning jismoniy himoyasi ta’minlangan bo‘lsa, po‘choqdagi yengil yuzaki yoriqlar nuqson hisoblanmaydi;

STANDARTLAR INSTITUTI #GX5NMZC4IK - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

• sifatli bo‘lishi; mahsulotning iste’mol uchun yaroqsiz bo‘lishiga olib keluvchi chirish yoki sifat buzilishi holatlari kuzatilgan mahsulotlar bundan mustasno;
• toza bo‘lishi; amalda ko‘rinadigan begona moddalardan xoli bo‘lishi
• amalda zararkunandalardan hashoratlardan xoli bo‘lishi kerak;
• amalda zararkunandalar yetkazgan shikastlanishlardan, shu jumladan o‘lik hasharotlar va kanalar, ularning qoldiqlari yoki ajratmalaridan xoli bo‘lishi kerak;
• burishib qolish yoki qurib qolish belgilaridan xoli bo‘lishi kerak;
• tashqi tomondan ko‘rinadigan unib chiqish belgilaridan xoli bo‘lishi kerak;
• g‘ayritabiiy tashqi namlikdan xoli bo‘lishi kerak;
• har qanday begona hid va ta’mdan xoli bo‘lishi kerak.

Shirin kashtanlarning rivojlanganlik darajasi va holati quyidagilarni ta’minlashi kerak:
• tashish, ortish va tushirish jarayonlariga bardosh berishi;
• belgilangan manzilga qoniqarli holatda yetib borishi.

B. Tasnifi

Shirin kashtanlar belgilangan uchta navga bo‘linadi

(i) “Extra” Oliy nav

Ushbu sinfdagi shirin kashtanlar oliy sifatli bo‘lishi kerak. Ular tegishli nav yoki tijorat turiga xos xususiyatlarga ega bo‘lishi lozim.

Shirin kashtan nuqsonlardan xoli bo‘lishi kerak, bundan mahsulotning umumiy tashqi ko‘rinishiga, sifatiga, saqlanish mudati va o‘ramdagi ko‘rinishiga ta’sir etmaydigan juda oz miqdordagi yuzaki nuqsonlar mustasno.

(ii) Birinchi nav

Ushbu toifadagi shirin kashtanlar sifatli bo‘lishi kerak. Ular naviga va tijorat turiga xos xususiyatlarga ega bo‘lishi kerak.

Biroq mahsulotning umumiy tashqi ko‘rinishiga, sifatiga, saqlanish xususiyatiga hamda qadoqdagi taqdim etilishiga ta’sir ko‘rsatmaydigan quyidagi kichik nuqsonlarga yo‘l qo‘yiladi:
• shaklining yengil nuqsonlari;
• rangidagi yengil nuqsonlar.

(iii) Ikkinchi nav

Ushbu navga yuqori navlar talablariga javob bermaydigan, biroq yuqorida belgilangan minimal talablarga muvofiq bo‘lgan shirin kashtanlar kiritiladi.

Shirin kashtanlarning sifati, saqlanish xususiyati va tashqi ko‘rinishining asosiy xususiyatlari saqlangan bo‘lsa, quyidagi nuqsonlarga yo‘l qo‘yiladi:
• shaklidagi nuqsonlar;
• rangidagi nuqsonlar.

STANDARTLAR INSTITUTI #GX5NMZC4IK - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

III. O‘lchamga oid qoidalar

O‘lcham 1 kg dagi kashtanlar soni yoki diametri, ya’ni har bir kashtanning diametri yoki diametrlar oralig‘i bo‘yicha aniqlanadi.

a) O‘lcham 1 kg dagi kashtanlar soni bo‘yicha aniqlanganda:

• minimal o‘lcham 1 kg da 125 ta kashtanni tashkil etishi kerak.

Har bir qadoqdagi 1 kg namunadan olingan eng kichik 10 ta va eng yirik 10 ta kashtanning umumiy massasi o‘rtasidagi farq o‘lchamning bir xilligini ta’minlash maqsadida 100 g dan oshmasligi kerak.

b) O‘lcham diametri bo‘yicha aniqlanganda:

• minimal diametr 20 mm bo‘lishi kerak.

IV. Chetlanishlarga oid qoidalar

Muomalaning barcha bosqichlarida ko‘rsatilgan sinf talablariga javob bermaydigan mahsulotlar uchun har bir turkumda sifat va o‘lcham bo‘yicha ruxsat etilgan og’ishlikga yo‘l qo‘yiladi.

A. Sifat bo‘yicha yo‘l qo‘yiladigan chetlanishlar

Yo‘l qo‘yiladigan nuqsonlar	Yo‘l qo‘yiladigan chetlanishlar Soni bo‘yicha nuqsonli mahsulot ulushi		
	Oliy nav	Birinchi nav	Ikkinchi nav
a) Sifat talablariga javob bermaydigan shirin kashtanlar uchun yo‘l qo‘yiladigan chetlanishlar	6	10	15
ulardan ko‘pi bilan			
• shikastlangan, qurigan va (yoki) burishgan;	2	4	7
• mog‘orlagan yoki chirigan	1	3	5
• tirik zararkunandalar	0	0	1
• zararkunandalar yetkazgan shikastlanishlar	0	3	7
• tashqi tomondan ozgina ko‘rinadigan unib chiqish	0	0	5
b) O‘lcham bo‘yicha yo‘l qo‘yiladigan chetlanishlar	10	10	10
c) Boshqa nuqsonlar uchun yo‘l qo‘yiladigan chetlanishlar			
• tijorat turi “to‘siqsiz mag‘izli kashtanlar” deb ko‘rsatilgan hollarda to‘siqli kashtanlar.	20	20	20

STANDARTLAR INSTITUTI #GX5NMZC4IK - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

V. Taqdim etishga oid qoidalar

A. Bir xillik

Har bir qadoqning tarkibi bir xil bo‘lishi hamda faqat bir xil kelib chiqishga, naviga yoki tijorat turiga, sifatiga, o‘lchamiga va deyarli bir xil rivojlanganlik darajasiga ega bo‘lgan shirin kashtanlardan iborat bo‘lishi kerak.

Oliy toifasiga mansub shirin kashtanlar bir xil rangda bo‘lishi kerak.

Qadoq tarkibining ko‘rinib turgan qismi qadoqning butun tarkibiga xos bo‘lishi kerak

B. Qadoqlash

Shirin kashtanlar mahsulotning tegishli darajada saqlanishini ta’minlaydigan tarzda qadoqlanishi kerak.

Qadoq ichida foydalaniladigan materiallar toza bo‘lishi hamda mahsulotga tashqi yoki ichki shikast yetkazmaydigan sifatga ega bo‘lishi kerak. Savdo tavsiflari tushirilgan materiallardan, xususan qog‘oz yoki tamg‘alardan foydalanishga, bosma yozuvlar yoki markirovkalash zaharli bo‘lmagan siyoh yoki yelim yordamida bajarilgan bo‘lsa, yo‘l qo‘yiladi.

VI. Tamg‘alashga oid qoidalar

Har bir qadoq[1] quyidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olishi kerak: yozuvlar bir tomonda jamlangan, aniq o‘qiladigan, o‘chmaydigan tarzda belgilangan hamda tashqi tomondan ko‘rinadigan bo‘lishi lozim.

A. Identifikatsiya

Qadoqlovchi va/yoki jo‘natuvchi/eksportchi: Nomi va yuridik manzili (masalan, ko‘cha/shahar/hudud/pochta indeksi hamda, agar kelib chiqish mamlakatidan farq qilsa, mamlakat nomi) yoki bunday tizimni qo‘llayotgan mamlakat BMTning Yevropa iqtisodiy komissiyasi Kod[3] belgilari reyestriga kiritilgan bo‘lsa, milliy vakolatli organ tomonidan rasman tan olingan kod belgisi.

B. Mahsulotning xususiyati

- Mahsulot qadoqning tashqi tomonidan ko‘rinmaydigan bo‘lsa — “Shirin kashtan” yoki “Yapon kashtani”;
- tegishli hollarda, to‘siqsiz mag‘izli kashtanlar uchun — “Marron”;
- navining nomi (ixtiyoriy).

C. Mahsulotning kelib chiqishi

- kelib chiqqan mamlakati[3] hamda ixtiyoriy ravishda yetishtirilgan tumani (hududi) yoki milliy, mintaqaviy yoki mahalliy joy nomi;

STANDARTLAR INSTITUTI #GX5NMZC4IK - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

D. Tijorat tavsifnomalari

• nav;
• O‘lchami quyidagicha ifodalanadi:
• 1 kg dagi kashtanlar soni;
• minimal va maksimal diametri, mm.

E. Rasmiy nazorat belgisi (ixtiyoriy)
1983-yilda qabul qilingan

[1] Ushbu tamg’alash talablari qadoqlar ichiga joylashtirilgan iste’mol qadoqlariga nisbatan tatbiq etilmaydi. Biroq ular alohida taqdim etiladigan iste’mol qadoqlariga (oldindan qadoqlangan mahsulotlarga) nisbatan qo‘llaniladi.
[2] Ayrim mamlakatlarning milliy qonunchiligida nom va manzilni to‘liq ko‘rsatish majburiy hisoblanadi. Biroq identifikatsiya kodi qo‘llanilgan hollarda kodning bevosita yonida “qadoqlovchi va (yoki) jo‘natuvchi” (yoki shunga teng ma’nodagi qisqartmalar) ko‘rsatilishi kerak. Agar mahsulotning kelib chiqish mamlakati bo‘lmasa, identifikatsiya kodidan oldin uni tan olgan mamlakatning ISO 3166 (alfa) mamlakat (hudud) kodi keltirilishi kerak.
[3] To‘liq nomi yoki keng qo‘llaniladigan nomi ko‘rsatilishi kerak.

So‘nggi marta 2016-yilda qayta ko‘rib chiqilgan
2017-yildagi standart tuzilmasiga muvofiqlashtirilgan

STANDARTLAR INSTITUTI #GX5NMZC4IK - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI